

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.09.2024.B.82.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

SATTOROV MUZAFFAR SOATOVICH

**OLXO'RI CHECHAGI VIRUSINING O'SIMLIK BA'ZI MORFO-
FIZIOLOGIK XUSUSIYATLARIGA TA'SIRINI O'RGANISH VA UNING
DIAGNOSTIKASI**

03.00.04-Mikrobiologiya va virusologiya

BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Chirchiq-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Sattorov Muzaffar Soatovich

Olxo‘ri chechagi virusining o‘simlik ba’zi morfo-fiziologik xususiyatlariga ta’sirini o‘rganish va uning diagnostikasi.....3

Саттаров Музаффар Соатович

Изучение влияния вируса оспы сливы на некоторые морфофизиологические характеристики растений и его диагностика.....21

Sattorov Muzaffar Soatovich

Study of the influence of the Plum pox virus on some morphophysiological characteristics of plants and its diagnosis.....40

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....44

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.09.2024.B.82.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

SATTOROV MUZAFFAR SOATOVICH

**OLXO'RI CHECHAGI VIRUSINING O'SIMLIK BA'ZI MORFO-
FIZIOLOGIK XUSUSIYATLARIGA TA'SIRINI O'RGANISH VA UNING
DIAGNOSTIKASI**

03.00.04-Mikrobiologiya va virusologiya

BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Chirchiq-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4 PhD/B803 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.cspu.uz.ilmiy-kengash) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Fayziyev Voxid Baxramovich
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Qodirova Zarifa Nosirovna
biologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

Xo‘jamshukurov Nortoji Abdixaliqovich
biologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi PhD.03/27.09.2024.B.82.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «___» _____soat ___dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahar, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712-45-41; e-mail: chdpu_kengash@umail.uz)

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (___ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712- 45-41.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “___” _____ da tarqatildi.
(2025 yil “___” _____dagi _____ - raqamli reyestr bayonnomasi).

S.T. Jo‘rayev

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi
o‘rinbosari, b.f.d., professor

A.Q. Bo‘ronov

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
b.f.f.d., dotsent

H.A. Mo‘minov

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy
seminar raisi, b.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda antropogen omillarning tabiiy muhitga ta'siri muhim qishloq xo'jaligi o'simliklarini kasallantiruvchi viruslar tarqalish ko'lamining ortishiga va hududlarda invaziv viruslarning tarqalishiga, ularning yangi tabiiy o'choqlarining paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Bu esa o'z navbatida kasallanishning ortishi va yetishtirilayotgan mahsulot sifatining yomonlashuviga va eksportboplik qimmatining pasayishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, danak mevali daraxtlarda uchraydigan olxo'ri chechagi (OChV) kabi viruslarning ushbu turkum turlari ichida keng tarqalishi hamda tarqalish arealining juda tez suratlarda ortib borayotganligi kuzatilmoqda. Bunday zararli viruslarning tarqalish darajasi va arealini aniqlash, molekulyar identifikatsiyalash, virusni o'simlikning morfo-fiziologik xususiyatlariga ta'sirini baholash unga qarshi kurash choralarini ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dunyo miqyosida olxo'ri o'simligini kasallantiruvchi fitopatogen viruslarni aniqlash, xususan olxo'ri chechagi virusining izolyat va shtammlarini molekulyar-genetik xususiyatlarini o'rganish ustida keng ko'lamli izlanishlar olib borilmoqda. Shu o'rinda, olxo'ri chechagi virusiga chidamli bo'lgan nav va namunalarni aniqlash, ularning chidamliligini molekulyar-genetik, fiziologik va biokimyoviy belgi-xususiyatlari asosida baholash, chidamlilik genlari uchun boshlang'ich genetik manbalarini markerlar asosida izlab topish, gen injeneriya va biotexnologik yo'llar bilan ushbu genlarni transformatsiya qilish yoki virus qismlari sinteziga javobgar bo'lgan genlarni o'simliklarga ko'chirish hamda RNK interferensiyasi orqali chidamlilik xususiyatlarini oshirish orqali virus zararini kamaytirish hamda unga qarshi kurash choralarini ishlab chiqishga katta e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda ko'plab sohalar qatori qishloq xo'jaligini rivojlantirish, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini sohaga joriy etish, meva-sabzavotchilikni rivojlantirish, hosildorligi va kasallik qo'zg'atuvchi patogen mikroorganizmlarni, xususan viruslarni aniqlash va diagnostika qilish borasida muhim natijalarga erishildi. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 - yillarga mo'ljallangan strategiyasida "Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, o'simlik kasalliklariga qarshi kurash va fitosanitariya xizmatlarini yo'lga qo'yish"¹ kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda olxo'ri o'simligida tarqalgan virusli kasalliklar va ularning tarqalish darajasini monitoring qilish, OChV izolyatlari CP genining molekulyar-genetik identifikatsiyasi natijasida genom nukleotidlar izchilligini aniqlash, virusning CP geni asosida filogenetik analiz qilish va aminokislotalar tarkibini qiyosiy tahlil qilish, olxo'ri chechagi virusining toza, gomogen preparatini ajratish va tozalik darajasini tahlil qilish va virusning o'simlik morfo-fiziologik xususiyatlariga ta'sirini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 - yillarga

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni <https://lex.uz/docs/-4567334>

mo'ljallangan strategiyasi to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-iyuldagi PF-6262-son "Respublikada o'simliklar karantini va himoyasi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-martdagi PQ-4246-son "O'zbekiston Respublikasida bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-iyundagi PQ-233-son "Iqlim o'zgarishiga nisbatan barqaror agroekotizimni yaratish hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarning iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xavflarga moslashuvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Olxo'ri o'simligini kasallantiruvchi viruslarining tuzilishi, xususiyatlari, tasnifi va ularga qarshi kurash choralarini ishlab chiqishga, virusning genetik tavsifi, o'simlik morfo-fiziologik xususiyatlariga ta'siri va molekulyar identifikatsiyasiga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar xorij olimlaridan D.Atanassov (1932), M.Goylo (1937), N.Knuzzen (1979), M.Megpebb (1986), M.Netesh (1986), H.Kegler (2002), M.Cambra (2006), M.Barba (2011), Z.Subr (2013), D. James (2017), L.Buntsevich (2018) kabi olimlar tomonidan olib borilgan.

MDH davlatlarida olxo'ri chechagi virusiga oid tadqiqotlar, xususan, OChV ning tuzilishi, xususiyatlari, ekologiyasi, shtammlari, immunodiagnostikasi va molekulyar-genetik diagnostikasi kabi xususiyatlariga doir tadqiqotlar T.D.Verderevskaya (1964), S.M.Pospelov (1978), V.G.Marinesku (1985), I.V.Mitrofanova (2014), S.N.Chirkov (2016), A.A.Sheveleva (2020) va O.Kutsenko (2020) kabi olimlar tomonidan olib borilgan.

Mamlakatimizda esa fitopatogen viruslarni o'rganish bo'yicha tadqiqotlar A.H.Vahobov (1964, 1991), Z.N.Qodirova (1991), U.M.Jo'rayeva (1994), G.M.Umarova (2009), V.B.Fayziyev (2011, 2020), T.S.Xusanov (2019), B.J.Ahmadaliyev (2023), T.X.Maxmudov (2023), D.T.Jovliyeva (2024) va Z.Sh.Sobirova (2024) kabi olimlar tomonidan olib borilgan. Ammo, respublikamizda danak mevali o'simliklarni kasallantiruvchi viruslar o'rganilmagan. Shuning uchun olxo'ri o'simligini kasallantiruvchi viruslarni aniqlash, uning o'simlik morfo-fiziologik xususiyatlariga ta'sirini o'rganish va diagnostika qilish muhim amaliy va nazariy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot Chirchiq davlat pedagogika universitetining "O'zbekiston iqlim sharoitida tarqalgan fitopatogen viruslarni ajratish, xususiyatlarini o'rganish va diagnostika qilish" mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlarining rejalari bilan bo'g'liq holda bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi olxo'ri chechagi virusini ajratish, biologik, molekulyar-genetik identifikatsiyalash va o'simlikning ayrim morfo-fiziologik xususiyatlariga ta'sirini o'rganish hamda diagnostika qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

olxo'ri o'simligida tarqalgan virusli kasalliklar va ularning tarqalish darajasini monitoring qilish hamda OChVga xos bo'lgan kasallik alomatlarini aniqlashtirish;

olxo'ri o'simligidan OChVni ajratish va test-indikator o'simliklardagi alomatlarini o'rganish orqali biologik identifikatsiyalash;

Toshkent viloyati ekologik sharoitida tarqalgan OChV izolyatlarini teskari transkriptazali polimeraza zanjir reaksiyasi (TT-PZR) usulida molekulyar-genetik identifikatsiyalash hamda virusning CP geni asosida filogenetik analiz qilish va aminokislotalar tarkibini qiyosiy tahlil qilish;

virusning olxo'ri o'simligidagi ayrim muhim fiziologik jarayonlariga ta'sirini o'rganish va baholash;

OChVning toza, gomogen preparatini ajratish va tozalik darajasini tahlil qilish;

tozalangan virus preparatiga spetsifik quyon antizardobini tayyorlash, titrini aniqlash va virus diagnostikasida qo'llash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Toshkent viloyati iqlim sharoitida tarqalgan va olxo'ri o'simligidan ajratib olingan OChV ning izolyatlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning predmeti sifatida esa Toshkent viloyatining turli ekologik hududlarida bog'dorchilikka ixtisoslashgan mahalliy va iqlimlashtirish uchun keltirilgan olxo'ri navlari, turli indikator o'simliklar, OChVga olingan poliklonal antizardob va o'simlik peroksidazasining infeksiyon jarayondagi dinamikasi kabilar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishini bajarishda, virusologiya sohasida keng qo'llaniladigan fitoviruslarni ajratish va tozalash, virusga spetsifik quyon antizardobini tayyorlash, spektrofotometriya, ikkiyoqlama immunodiffuziya (IID), fizik-kimyoviy usullar, gelfiltratsiya, polimeraza zanjir reaksiyasi (PZR) kabi virusologik, biokimyoviy, biotexnologik usullar va MEGA11 kabi bioinformatik dasturdan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Toshkent viloyati sharoitida OChVning izolyatlari ajratilgan va tarqalish darajasi aniqlangan;

ajratilgan virus PZR usulida molekulyar-genetik identifikatsiya qilingan va D shtammga xosligi hamda bir-biridan farqlanuvchi izolyatlar ekanligi isbotlangan;

ajratib olingan mahalliy izolyatlarining oqsil qobig'idagi geni nukleotidlar izchilligi va shu asosida sintezlanadigan oqsilning aminokislotalar tarkibi unga yaqin izolyatlar bilan qiyosiy tahlil qilish orqali aniqlangan;

toza virus preparati asosida spetsifik quyon zardobini tayyorlash usuli takomillashtirilgan hamda ushbu usul yordamida yuqori titrli spetsifik zardob tayyorlash mumkinligi immunologik hamda molekulyar-genetik usullar yordamida isbotlangan;

tayyorlangan yuqori titrli zardob virus diagnostikasida qo'llanilishi natijada *Convolvulus arvensis*, *Trifolium pretense* kabi yovvoyi o'simliklar virusning

respublikamiz iqlim sharoitida tarqalgan yangi rezervator o'simliklari ekanligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Toshkent viloyati hududida o'suvchi olxo'ri o'simligidan OChV izolyatlari ajratildi va danak mevali daraxtlarni kasallantiruvchi xavfli patogen virus sifatida aniqlangan;

olxo'ri o'simligi bargidagi fotosintetik apparat hisoblangan pigment miqdori, kasallangan va sog'lom o'simlikdagi peroksidaza fermentining dinamikasiga ta'sirini aniqlash orqali virusning o'simlik morfo-fiziologik xususiyatlariga ta'siri baholangan;

virus preparatining tozalik darajasi spektrofotometrik, molekulyar-genetik va immunologik tahlili preparatning gomogen ekanligini tasdiqladi va tozalash jarayonida qo'llanilgan modifikatsiyalangan tozalash sxemasi samarali ekanligi aniqlangan;

virusga tayyorlangan spetsifik quyon zardobi titrining 1:512 ekanligi ishlab chiqilgan immunizatsiya sxemasi va qo'llanilgan VetoZal Euro 10 % li immunomodulyatorning samarali ekanligini va ushbu yo'nalishda olib boriladigan tadqiqotlarda foydalanish mumkinligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlillar zamonaviy virusologik, biotexnologik, molekulyar-genetik usullardan foydalangan holda o'tkazilganligi, ilmiy natijalarning statistik tahlil qilishida "Statistica 6.0", SnapGene, MEGA11 dasturlari yordamida bioinformatik tahlil, GenBank - NCBI ma'lumotlar bazasiga o'rganilgan virus izolyatlari nukleotidlar ketma-ketligini joylashtirilganligi, ilmiy-tadqiqot natijalarini respublika va xalqaro konferensiyalarda muhokama qilinganligi va tadqiqot natijalarini O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda nashr etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

O'zbekistonda tarqalgan OChV izolyatlari CP genining molekulyar-genetik identifikatsiyasi natijasida genom nukleotidlar izchilligining aniqlanganligi va xalqaro GeneBank - NCBI bazasiga PPVUzb1 (ID MT038048), PPVUzb2 (ID MT038050) va PPVUzb3 (ID MT038049) nomi bilan joylashtirilganligi va mamlakatimiz iqlim sharoitida olxo'ri o'simligini kasallantiruvchi ilk virus sifatida aniqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O'zbekiston iqlim sharoitidan ajratilgan OChVning toza virus preparati olindi va bu preparat asosida virusga yuqori titrli spetsifik zardob tayyorlandi, tayyorlangan zardob virus diganostikasi hamda virusning tabiiy rezervator o'simliklarini aniqlashda hamda virusga qarshi kurash choralarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Olxo'ri o'simligini kasallantiruvchi viruslarni ajratish, xususiyatlarini o'rganish va ularning diagnostikasi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

OChVning O'zbekistonda tarqalgan izolyati O'zR FA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi institutidagi "Fitopatogen va boshqa mikroorganizmlar

noyob ilmiy obyekt kolleksiyasi” genofondiga topshirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2024-yil 15-martdagi 4/1255-610-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, kolleksiyadagi viruslar genofondini boyitish, elektron bazasi axborot-tahlil tizimini shakllantirish imkonini bergan;

OChVning Toshkent viloyatida tarqalgan uchta bir-birdan farqlanuvchi izolyatlari molekulyar-genetik usulda identifikatsiya qilindi va PPV Uzb1, PPV Uzb2 va PPV Uzb3 nomi bilan Xalqaro GenBank - NCBI ga joylandi (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2024-yil 8-oktabrdagi 05/06-02-861-sonli ma’lumotnomasi). Natijada viruslarning yangi turlarini tavsiflashda nukleotidlar ketma-ketligi asosida mintaqalararo foydalanish imkonini bergan;

olxo‘ri o‘simligidan ajratilgan izolyatlarning laboratoriya sharoitida toza preparati olingan, virusga spetsifik, yuqori titrli quyon zardobi Toshkent viloyati Parkent va Qibray tumanlaridagi jami 10,4 ga maydonda virus diagnostikasida joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2024-yil 8-oktabrdagi 05/06-02-861-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, bog‘dorchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarida olxo‘ri chechagi virusini erta aniqlash va tarqalishini oldini olish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 9 ta respublika ilmiy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan 6 tasi O‘zbekiston Respublikasining Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, jumladan 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy ilmiy jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, 3 ta bob, xulosalar va adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, dissertatsiya 107 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati, maqsad va vazifalari asoslab berilgan, tadqiqotning obyekt va predmetlari tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Olxo‘ri chechagi virusining biologiyasi, ekologiyasi hamda diagnostika usullariga oid adabiyotlar tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida olxo‘ri va boshqa danak mevali daraxtlarni kasallantiruvchi fitopatogen virusli kasalliklarning tavsifi, OChVning bioekologik xususiyatlari, tabiatda tarqalish va yuqish yo‘llari, virusning toza preparatini olish usullari, spetsifik antizardob va uning o‘ziga xos xususiyatlari, fitoviruslar diagnostika usullari va o‘simliklarni viruslardan himoyalash choralari oida chop etilgan ilmiy manbalarning tahlili keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Olxo‘ri chechagi virusining o‘simliklarga ta‘sirini o‘rganish va virusni diagnostika qilish hamda xususiyatlarini o‘rganishda qo‘llanilgan usullar**” deb nomlangan ikkinchi bobida dissertatsiya ishi davomida foydalanilgan material va tadqiqot uslublar bayoni keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Olxo‘ri chechagi virusini ajratish, toza preparatini olish, molekulyar-genetik identifikatsiyasi hamda spetsifik zardob tayyorlash**” nomli uchinchi bobida Toshkent viloyati ekologik sharoitida yetishtirilayotgan o‘lxo‘ri o‘simligini kasallantiruvchi OChVning test-indikator o‘simliklardagi kasallik alomatlarini o‘rganish orqali biologik identifikatsiyalash, viruslarga xos kasallik alomatlariga asosan monitoringi, OChVni TT-PZR usuli yordamida diagnostika qilish va shtammlarini aniqlash kabi qator tadqiqot natijalari keltirilgan.

Virusologik tadqiqotlarda vizual monitoring ishlari muhim hisoblanganligi bois, dastlab Toshkent viloyatining Qibray, Parkent, Bo‘stonliq va O‘rta Chirchiq tumanlarida bog‘dorchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarida o‘lxo‘ri bog‘lari monitoring qilindi va olib borilgan kuzatishlar natijasida o‘simlik barglarida mozaika, deformatsiyalar, mevalarda virusga xos halqalar, dog‘lar, mevaning qattiqlashishi, mevaning erta to‘kilishi kabi alomatlar aniqlandi (1-rasm).



1-rasm. Olxo‘ri chechagi virusining olxo‘ri o‘simligi bargidagi kasallik alomatlari.

1) sog‘lom (nazorat); 2) kuchsiz kasallangan; 3) o‘rtacha kasallangan; 4) kuchli kasallangan o‘simlik barglari.

Ilmiy manbalar (S.Chirkov, 2014; A.Sheveleva, 2020) asosida aniqlangan alomatlar orasidan o‘simlik bargida xlorotik dog‘lanish, halqasimon dog‘lanish alomatlari OChVga xos ekanligi aniqlashtirildi.

Keyingi tadqiqotlar virusni xo‘jayin o‘simlikdan ajratish, yuqumlilik tabiatini aniqlash hamda test-indikator o‘simliklardagi alomatlariga asosan biologik identifikatsiyalash hisoblanib, buning uchun kasallik alomatlari mavjud o‘simliklardan namunalar yig‘ib olinib, laboratoriya sharoitida yuqumli shira tayyorlash va test-indikator o‘simliklarga mexanik inokulyatsiya qilish orqali aniqlandi (1-jadval).

Olingan natijalar asosida mexanik inokulyatsiya qilingan test-indikator o‘simliklarning aksariyatida virusga xos bo‘lgan halqali dog‘lanish alomatlari namoyon bo‘lganligi aniqlandi. Jumladan, *Chenopodiaceae* oilasi vakili *Chenopodium quinoa* (2-rasm), *Ch.amaranticolor* va *Ch.album* turlari barg sathida 7-9 kundan so‘ng sariq halqasimon dog‘ni, *Ch.murale* turida esa boshqa turlardan

**O'zbekiston sharotida ajratilgan OChV ning test-indikator o'simliklardagi kasallik
alomatlari**

Indikator o'simliklar oilasi va tur nomi		Kasallik alomatlari	Paydo bo'lish muddati
Sho'radoshlar (<i>Chenopodiaceae</i>)			
1.	Sho'ra (<i>Chenopodium quinoa</i>)	Sariq halqali dog'	7-9
2.	Sho'ra (<i>Ch. amaranticolor</i>)	Sariq halqali dog'	10-11
3.	Dumbil sho'ra (<i>Ch. murale</i> L.)	Sariq xlorotik dog'	6-7
4.	Oq sho'ra (<i>Ch. album</i> L.)	Sariq xlorotik dog'	10-11
Ituzumdoshlar (<i>Solanaceae</i>)			
5.	Bangidevona (<i>Datura stramonium</i>)	Sariq yoyilgan mozaika	10-12
6.	Mingdevona (<i>D. metel</i>)	Sariq yoyilgan mozaika	18-20
7.	Tamaki (<i>Nicotiana barley</i>)	Mozaika	20-22
8.	Tamaki (<i>Nicotiana glutinosa</i>)	Sariq xlorotik dog' va sariq mozaika	14-16
9.	Tamaki (<i>Nicotiana benthamiana</i>)	Sariq halqali mozaika	16-18
10.	Petuniya (<i>Petunia hybrida</i>)	-	-
11.	Baqlajon (<i>Solanum melon-gena</i>)	-	-
12.	Bulg'or qalampir (<i>Capsicum annum</i>)	-	-
13.	Fizalis (<i>Nicandra physalodes</i>)	Nekrotik dog'	14-16
Dukkakdoshlar (<i>Leguminosae</i>)			
14.	Yashil no'xat (<i>Pisum sativum</i>)	Yashil mozaika	18-20
15.	Loviya (<i>Phaseolus vulgaris</i>)	-	-
16.	Vigna (<i>Vigna sinensis</i>) Qorako'z navi	-	-

farqli ravishda 6-7 kunda barg sathida sariq xlorotik dog' alomatlarini keltirib chiqardi. Test-indikator o'simliklarni mexanik inokulyatsiya qilinganda, olingan natijalar jadvalda va quyidagi rasmda keltirilgan (2-rasm).




2-rasm. OChVning *Ch. quinoa* o'simlik barglardagi alomatlari.

Rasmdagi: a-sog'lom o'simlik; b-virus bilan kasallangan o'simlik barglari.

Ushbu o'tkazilgan tadqiqot natijasida quyidagicha xulosa qilish mumkin, OChV xo'jayin o'simlikdan mexanik inokulyatsiya yo'li bilan ajratib olindi hamda test-indikator o'simliklarda virusga xos tipik belgi hisoblangan xlorotik va halqasimon dog'larning paydo bo'lishi bilan biologik identifikatsiya qilindi.

Bugungi kunda fitopatogen viruslarni diagnostika qilishda molekulyar-genetik usullar keng miqyosda qo'llanilmoqda, shuning uchun keyingi tadqiqotlarda Toshkent viloyati ekologik sharoitida tarqalgan OChVni TT-PZR usuli yordamida diagnostika qilish va shtammini aniqlash bo'yicha tadqiqot natijalari keltirilgan.

Virusni molekulyar diagnostikasi va shtammini aniqlash. Buning uchun kasallik alomatlari sariq xlorotik va halqasimon dog‘ mavjud bo‘lgan o‘simliklardan (1-rasm) namunalar yig‘ildi va TT-PZR usuli yordamida molekulyar identifikatsiya qilindi. Olxo‘ri o‘simligidan olingan namunalar liofil quritilgan holatda Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining “O‘simlik viruslari biokimyosi” laboratoriyasida b.f.d., prof. S.N.Chirkov bilan birgalikda molekulyar diagnostika qilindi. Molekulyar diagnostika qilish uchun ikki xil, ya’ni P1/P2 praymerdan foydalanildi, praymer nukleotid ketma-ketligi quyida keltirilgan (PZR mahsuloti 243 bp) P1-F:ACCGAGACCACTACACTCCC /P2-R: CAGACTACAGCCTCGCCAGA (Wetzel et al., 1991). OChV shtammini aniqlash uchun esa P1/PD praymeridan foydalanildi, uning nukleotid ketma-ketligi quyida keltirilgan (PZR mahsuloti 198 bp) P1-F:ACCGAGACCACTACACTCCC /PD-R: CTTCAACGACACCCGTACGG (Olmos et al., 1997). TT-PZR natijalari elektroforez qurilmasida 2 % li agarozda gelida vizualizatsiyalashtirildi, tekshirish natijasida olingan elektroforegramma keltirilgan (3-rasm).



Elektroforez 2 % li agarozda gelida amalga oshirildi. M - 100 bp DNA ladder Plus. 1-3-bargida sariq xlorotik va halqasimon dog‘ mavjud olxo‘ri o‘simliklardan olingan namunalar; 4-6-namunalardagi (1,2,3) virus shtammini aniqlash uchun o‘tkazilgan diagnostika natijalari. Praymerlar: OChV diagnostikasi uchun P1/P2 (Wetzel et al., 1991) va shtamm diagnostikasi uchun P1/PD (Olmos et al., 1997) ishlatilgan. PZR sharoiti A.Shevelevada keltirilgandek amalga oshirildi (Sheveleva et al., 2020).

3-rasm. OChV ni TT-PZR usulida molekulyar identifikatsiya qilish


O‘tkazilgan molekulyar diagnostika virusning eng keng tarqalgan shtamlari uchun tayyorlangan maxsus praymer P1/P2 yordamida o‘tkazildi va natijaga ko‘ra tekshirilgan har uchala namuna (3-rasm, 1-3) ham OChV bilan kasallanganligi aniqlanib PZR mahsuloti 243 bp ni tashkil etdi. O‘tkazilgan PZR tekshiruvi natijasida ushbu virus OChVning D shtammiga xos ekanligi tasdiqlandi.

OChV izolyatlarini oqsil qobig‘i geni asosida molekulyar-genetik identifikatsiyalash va filogenetik analizi. Buning uchun namunalar TT-PZR usuli yordamida molekulyar identifikatsiya qilindi. PZR o‘tkazish jarayoni A.Shevelevada (2020) keltirilgani virusning oqsil qobig‘i (CP) (Cter) N1b-CP-3’-NCR genom qismiga tayyorlangan maxsus praymer N1bF/4CPR1 yordamida amalga oshirildi, PZR mahsuloti 1263 bp ni tashkil etdi, uning nukleotid ketma-ketligi quyida keltirilgan:

N1bF:CTTGAATGGGACAGATCAAATGA;

4CPR1:GAGAAAAGGATGCTAACAGGAATC (Wallis et al., 2007; Matic et al., 2011, Chirkov et al., 2016; A.Sheveleva, 2020).

PZR mahsuloti geldan kesib olinib, berilgan protokol asosida tayyorlandi va sekvens uchun (Yevrogen, Rossiya) topshirildi. Sekvens natijasida aniqlangan nukleotidlar virus izolyatlarini filogenetik analiz qilishda foydalanildi. O'tkazilgan bioinformatik tahlillarda Toshkent viloyati iqlim sharoitidan molekulyar-genetik xususiyatlari bilan farqlanuvchi uchta izolyat aniqlandi hamda Xalqaro GenBank – NCBIga PPV Uz1 (MT038048.1), Uz2 (MT038050.1) va Uz3 (MT038049.1) nomi bilan joylashtirildi (<http://www.ncbi.nlm.nih.gov/genbank>), shuningdek bugungi kungacha ushbu virusning 10 dan ortiq bir-biridan farqlanuvchi stammlari aniqlanganligi hisobga olinib, shajara tuzishda NCBI bazasiga joylashtirilgan D shtammi asos qilib olindi (4-rasm).



4-rasm. OChVning O'zbekiston iqlim sharoitidan aniqlangan izolyatlarining filogenetik shajarasi

Shajaradan shu narsa ko'rinib turibdiki, virusning D shtammiga xos bo'lgan izolyatlar to'rtta alohida filogenetik shoxda joylashganligi ma'lum bo'ldi. Jumladan, O'zbekistonning MT038048.1 va MT038050.1 izolyatlari, Qozog'istonning LT600780.1 va Slovakiyaning GU461890.1 izolyatlari bitta filogenetik shoxda, O'zbekistonning MT038049.1 izolyati va Chexiya Respublikasidan aniqlangan MYY251495.1 izolyatlari esa alohida filogenetik shoxda joylashganligi, ammo bu izolyatlarning umumiy bitta klasterda joylashganligi, ularning kelib chiqishi va evolyutsiyasi jihatdan yaqin ekanligidan dalolat beradi. Boshqa izolyatlar bilan yaqinlik darajasi filogenetik shajarada keltirilgan.

Tadqiqot natijalaridan quyidagicha xulosa qilish mumkin, virusning oqsil qobig‘i (CP) (Cter) NIb-CP-3’-NCR genom qismiga tayyorlangan maxsus praymer NIbF/4CPR1 yordamida molekulyar-genetik identifikatsiya qilindi va sekvens natijalariga ko‘ra O‘zbekiston iqlim sharoitidan molekulyar-genetik tasnifi bilan farqlanuvchi uchta izolyatlar aniqlandi (4-rasm). Yuqorida keltirilgan tadqiqot natijalariga asoslanib, nukleotidlar ketma-ketligida kuzatilgan o‘zgarishlarning oqsil tarkibidagi aminokislota tarkibi sinteziga ta’sirini o‘rganish muhim hisoblanadi.

Keyingi tadqiqotlarda aniqlangan izolyatlarning oqsil qobig‘i aminokislotalar tarkibi FASTA bioinformatik dasturlari yordamida qiyosiy tahlil qilish orqali aniqlandi (5-rasm).

```

MT038050.1      NGMEPICASMVEAWGYKELLREIRKFYSWVLEQAPYNALSKDGKAPYIAETALKKLYTDT
MT038049.1      -----MVEAWGYKELLREIRKFYSWVLEQAPYNALSKDGKAPYIAETALKKLYTDT
MT038048.1      -RMEAICASMVEAWGYKELLREIRKFYSWVLEQAPYNALSKDGKAPYIAETALKKLYTDT
LT600780.1_8308-9610 -RLEAICASMVEAWGYKELLREIRKFYSWVLEQAPYNALSKDGKAPYIAETALKKLYTDT
                    *****
MT038050.1      EASETEIERYLEAFYNDINDDGESNVVVHQADEREDEEEVDAGKPIVVTAPAATSPILQP
MT038049.1      EASETEIERYLEAFYNDINDDGESNVVVHQADEREDEEEVDAGKPIVVTAPAATSPILQP
MT038048.1      EASETEIERYLEAFYNDINDDGESNVVVHQADEREDEEEVDAGKPIVVTAPAATSPILQP
LT600780.1_8308-9610 EASETEIERYLEAFYNDINDDGESNVVVHQADEREDEEEVDAGKPIVVTAPAATSPILQP
                    *****
MT038050.1      PPVIQAPAPRTTAPMFNPIFTPATTQPATKPVSVSGPQLQTFGTHGNEDASPSNSNALVN
MT038049.1      PPVIQAPAPRTTAPMFNPIFTPATTQPATKPVSVSGPQLQTFGTHGNEDASPSNSNALVN
MT038048.1      PPVIQAPAPRTTAPMFNPIFTPATTQPATKPVSVSGPQLQTFGTHGNEDASPSNSNALVN
LT600780.1_8308-9610 PPVIQAPAPRTTAPMFNPIFTPATTQPATKPVSVSGPQLQTFGTHGNEDASPSNSNALVN
                    *****
MT038050.1      TNRDRDIDAGSIGTFTVPRKAMTSKLSLPKVKGKAIMNHLNLAHSPAQVDLSNTRAPQ
MT038049.1      TNRDRDIDAGSIGTFTVPRKAMTSKLSLPKVKGKAIMNHLNLAHSPAQVDLSNTRAPQ
MT038048.1      TNRDRDIDAGSIGTFTVPRKAMTSKLSLPKVKGKAIMNHLNLAHSPAQVDLSNTRAPQ
LT600780.1_8308-9610 TNRDRDIDAGSIGTFTVPRKAMTSKLSLPKVKGKAIMNHLNLAHSPAQVDLSNTRAPQ
                    *****
MT038050.1      SCFQTWYEGVKRDYDVTDDMSIILNGLMVWCIENGTSPTNNGMWVMDGETQVEYPIKP
MT038049.1      SCFQTWYEGVKRDYDVTDDMSIILNGLMVWCIENGTSPTNNGMWVMDGETQVEYPIKP
MT038048.1      SCFQTWYEGVKRDYDVTDDMSIILNGLMVWCIENGTSPTNNGMWVMDGETQVEYPIKP
LT600780.1_8308-9610 SCFQTWYEGVKRDYDVTDDMSIILNGLMVWCIENGTSPTNNGMWVMDGETQVEYPIKP
                    *****
MT038050.1      LLDHAKPTFRQIMAHFSNVAEAYIEKRNYEKAYMPRYGIQRNLTDYSLARYAFDFYEMTS
MT038049.1      LLDHAKPTFRQIMAHFSNVAEAYIEKRNYEKAYMPRYGIQRNLTDYSLARYAFDFYEMTS
MT038048.1      LLDHAKPTFRQIMAHFSNVAEAYIEKRNYEKAYMPRYGIQRNLTDYSLARYAFDFYEMTS
LT600780.1_8308-9610 LLDHAKPTFRQIMAHFSNVAEAYIEKRNYEKAYMPRYGIQRNLTDYSLARYAFDFYEMTS
                    *****
MT038050.1      TTPVRAREAHIQMKAALRNQVQNLRFGLDGNVGTQEEDTERHTAGDVNRNMHNLGVRGV
MT038049.1      TTPVRAREAHIQMKAALRNQVQNLRFGLDGNVGTQEEDTERHTAGDVNRNMHNLGVRGV
MT038048.1      TTPVRAREAHIQMKAALRNQVQNLRFGLDGNVGTQEEDTERHTAGDVNRNMHNLGVRGV
LT600780.1_8308-9610 TTPVRAREAHIQMKAALRNQVQNLRFGLDGNVGTQEEDTERHTAGDVNRNMHNLGVRGV
                    *****
CLUSTAL 2.1 multiple sequence alignment

```

5-rasm. OChV izolyatlari oqsil qobig‘i aminokislotalar tarkibining qiyosiy tahlili

Virus izolyatlari aminokislotalar tarkibini o‘rganish ustida o‘tkazilgan bioinformatik tahlillar, nukleotidlar tarkibida kuzatilgan 14 ta mutatsiya nuqtasidan oqsil aminokislotalar tarkibida 4 ta o‘zgarish bo‘lganligini ko‘rsatdi, ya’ni birinchi nuqtada MT038049.1 izolyatida aspartat (D) aminokislota kelgan bo‘lsa, qolgan izolyatlarda glitsin (G) aminokislota, ikkinchi nuqtada esa MT038048.1 va LT600780.1 izolyatlarda valin aminokislota kelgan bo‘lsa, qolgan har ikkala, ya’ni MT038050.1 va MT038049.1 izolyatlarda izoleysin (I) kelganligi aniqlandi. Qolgan nuqtalardagi o‘zgarishlar rasmda keltirilgan (5-rasm).

Bu ketma-ketlik asosida dunyoning boshqa mintaqalaridan ajratilgan turli

izolyatlarning oqsil qobig'i aminokislotalar tarkibi solishtirib o'rganilganda, ular orasida bir qator tafovutlarning mavjudligi aniqlandi. Jumladan, Arg - Uzb2 MT038050 va Uzb3 MT038049 izolyatida 22 tadan, Bosniya MW412433 izolyatida 25 ta, qolgan izolyatlarda esa 23 tadan, His - Uzb1,2,3 MT038048 va Bosniya MW412433 izolyatlarida 9 tadan, Yaponiya LC375110 va qolgan izolyatlarida 8 tadan, Lys- Bosniya MW412433 20 ta, qolgan izolyatlarda esa 19 tadan ekanligi aniqlandi.

Ushbu tadqiqot natijalariga ko'ra, mamlakatimizda ajratilgan izolyatlar oqsil qobig'i aminokislota tarkibi jihatdan ko'pgina izolyatlar bilan yaqin, ammo bir xil emasligi o'tkazilgan tahlillar natijasida aniqlandi. Virus 98,42 % gomologiyaga ega bo'lgan va filogenetik shajara daraxtida bitta shoxda joylashgan ajdodi, Qozog'istonda ajratilgan izolyat bilan aminokislota tarkibining juda o'xshash ekanligini mamlakatimizda tarqalgan izolyatlar ushbu hududdan tarqalgan yoki bitta yaqin kelib chiqish ajdodiga ega deb xulosa qilish mumkin.

OChVni o'simlikning ba'zi morfo-fiziologik xususiyatlariga ta'sirini o'rganish. O'simliklarning himoya mexanizmidagi peroksidaza fermentining alohida o'rni bo'lib, peroksidaza oksidlanish-qaytarilish reaksiyasi tufayli substrat molekulasidan perekslarga vodorodni olib o'tishi bilan xarakterlanadi. Kasallanish oqibatida peroksidaza fermentining tizimli faolligi oshishi tamaki mozaikasi virusiga o'ta chidamli tamakida olib borilgan bo'lib, o'simlik immunitetining tizimli chidamlilik alomatlarini aniqlab berdi (D.Jovliyeva, 2023). Shuning uchun ushbu tadqiqot ishida virus bilan turli (kuchsiz, o'rtacha va kuchli) darajada kasallangan va sog'lom o'simlik bargidagi peroksidaza ferment faolligi o'rganildi (2-jadval).

2-jadval

Turli darajada virus bilan kasallangan olxo'ri o'simligi barglaridagi peroksidaza dinamikasi faolligi

Tekshirilgan namunalar	Ferment turi		
	n	HDBKB*** M± m	Eruvchan M± m
Nazorat*	3	0,119±0.01*	0,155±0.04
Kuchsiz kasallangan	4	0,134±0.01	0,194±0.02*
O'rtacha kasallangan	4	0,144±0.02*	0,270± 0.03*
Kuchli kasallangan	4	0,158±0.05	0,383±0.11

Izoh: **Nazorat sifatida sog'lom o'simlikdan olingan barg namunalaridan foydalanilgan. Jadvaldagi - "****" shartli belgi bilan ajratilgan qisqartma so'z peroksidazaning hujayra devori bilan kuchsiz bog'langan turini anglatadi. *P<0,05 – nazoratga nisbatan ishonchli; n=3-4

Olib borilgan tadqiqot natijasi shuni ko'rsatdiki, o'simlikning turli darajada zararlangan bargidagi ferment faolligi nazorat (sog'lom) o'simligi bargiga nisbatan kasallanish darajasiga qarab turlicha o'zgarganligi aniqlandi. Jumladan, fermentning hujayra devori bilan kuchsiz bog'langan shaklining faolligi nazoratga nisbatan o'rtacha 1,3 marta, eruvchan shakli esa 2,4 marta oshganligi aniqlandi. Virus bilan kuchsiz darajada kasallangan o'simlikda hujayra devori bilan kuchsiz bog'langan peroksidaza miqdorining pasayishi va eruvchan shakli faolligining esa ikki barobarga

oshganligi olib borilgan tajribalar asosida o'z tasdig'ini topdi (2-jadval). Demak, olingan natijalar asosida OChV olxo'ri o'simligida, fiziologik xususiyatiga, xususan peroksidaza faolligiga ta'sir etib, uning oshishiga olib kelishi ma'lum bo'ldi.

Pigmentlar nafaqat fotosintez jarayonida ishtirok etish, balki o'simlik hujayrasi tarkibidagi erkin radikallarning boshqa yot modda bilan reaksiyaga kirishish va birikish funksiyasini bloklash va zararli ta'sirlardan himoya qilish funksiyasini ham bajaradi. Virus bilan kasallanish ko'p hollarda bargdagi pigmentlar miqdorini turli darajada kamayishiga olib keladi (T.Xusanov, 2020). Shuning uchun keyingi tadqiqotlarda OChVning o'simlikdagi pigment miqdoriga ta'sir darajasi o'rganildi. Buning uchun OChV bilan turli darajada kasallangan olxo'rining barglaridagi xlorofill a, b va karotinoid pigmentlari miqdorining dinamik o'zgarishi o'rganildi (3-jadval).

3-jadval

OChV bilan kasallangan olxo'ri navlarida pigment miqdorining dinamik o'zgarishi

Navlar	Namuna	n	Bargdagi pigment miqdori, mg/g		
			Xlorofill (a)	Xlorofill (b)	Karotinoid
Ispalniskaya	Nazorat**	3	1,71±0,09	1,17±0,07	0,87±0,04
	Kasallangan	3	1,60±0,04*	0,68±0,05*	0,63±0,03*
Vengerka	Nazorat**	3	2,21±0,08	1,21±0,03	0,84±0,03
	Kasallangan	3	1,54±0,07*	0,59±0,01*	0,69±0,01*


Izoh: **-nazorat sog'lom o'simlik hisoblanadi. *P<0,05, n=3

